

FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONANING O'RNI

Davronova Mohidil, talaba,

Farg'onan davlat universiteti,

O'zbekiston, Farg'onan sh.

Annonatsiya: Ushbu maqola farzand tarbiyasi va unda ota-onaning o'rni, hamda vazifa va burchlari masalalariga bag'ishlanadi. Shuningdek ushbu maqolada farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyat, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayon ekanligi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *oila, jamiyat, ota-ona, farzand, burch, tarbiya, ma'naviy yetuklik, sog'lom avlod, psixologiya.*

KIRISH:

Bolaning tabiatni, xulq-atvori oiladagi muhitga bog'liq. Albatta, yaxshi farzandlar o'z-o'zidan voyaga yetmaydi, balki oilada ota-ona nazoratida tarbiyalanib ulg'ayadi. Ulug'larimiz tomonidan farzandni har tomonlama barkamol voyaga yetishi uchun bir-necha tavsiyalar berilgan. U "Islom, Ilm, diyonat, qanoat, intizom, vijdon va vatanparvarlik,adolat, iffat, sabr hamda to'g'riso'zlik" kabi tavsiyalardan iborat bo'lib, yoshlar odob-axloq sohibi bo'lib shaklanishida muhum o'rin tutadi. Diyormizda oila ma'naviyati va madaniyati asrlar davomida o'ziga xos tarzda shakllangan. Vatanga, ota-onaga sodiqlik va fidoyilik o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi.

Bular zaminida yoshlarga oilada, ta'lim maskanlarida, mahallalarda beriladigan ta'lim tarbiya yotadi.

Shuning bilan birgalikda farzand tarbiyasidagi eng muhim omil bu – ota-ona tarbiyasi, ularning farzandiga qilgan e'tiboridir. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan maqol bejiz aytilmagan.





Serfarzandlik va bolajonlik; kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat; erkaklarning oiladagi yuqori mavqeい, ayollarning roishligi; oila va nikohning muqaddasligiga e'tiqod; ota-onalarning farzandlar oldidagi hamda farzandlarning ota-onalar oldidagi burch va mas'uliyatining muhim qadriyat sifatida e'tirof etilishi; oila sha'ni va obro'sining avaylab asralishi; kelin va qaynona munosabatlarining o'ziga xosligi; katta oilalarda bobo va buvilarning rahnamoligi; qarindoshlar, qo'ni – qo'shnilar, mahalla – ko'y oldidagi majburiyatini teran his qilish kabi o'zbek oilasiga xos bunday xususiyatlar zamirida dinimiz ta'limotlari yotadi.

Dunyoda ota-onalarning eng ulug' zotlar hisoblanadi. Chunki ular o'z farzandlari uchun hayotini, mehrini bag'ishlaydi. Farzandi katta bo'lib, oila qurib ketgandan keyin ham u haqda qayg'urishdan to'xtamaydi.

Ota-onalarning dunyoga kelishi bilan uni parvarish qilib, katta qiladi, kasal bo'lsa, davolaydi, yediradi, kiydiradi, uni oq yuvib, oq taraydi. Umuman, farzandini hayotda kerakli barcha narsalar bilan ta'minlashga harakat qiladi. Hatto buning uchun o'zlarini yeyish-ichish, kiyinish va shu kabi narsalardan mahrum bo'lsalar yoki kechalari uyqidan qolsalar ham.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYA

Bugun yoshlarimiz baxtli, chunki ularning ota-onalari boshida, ular uchun kerakli narsalarni ortig'i bilan olib bermoqda. To'g'ri, bu ishlar ota-onalarning farzand oldidagi asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Afsuski, ba'zi ota-onalar o'zlarining vazifalari faqat shu deb o'ylashadi. Holbuki, bulardan ham muhim, bulardan ham qiyin va bulardan ham asosiy vazifa ham bor, bu farzandning ma'naviy-axloqiy tarbiyasidir. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) bunday marhamat qiladilar: "Ota-onalarning yaxshi xulqdan ham ortiqroq narsa bera olmaydi". Demak, ota-onalarning beradigan eng yaxshi narsasi qimmatbaho kiyim, yaxshi taom yoki ajoyib sovg'a emas, balki go'zal xulq va yaxshi

tarbiyasi ekan. Chunki kiyim, taom yoki sovg‘a bolaga ma’lum vaqt foyda beradi, vaqt o’tishi bilan esa eskiradi.

Go‘zal xulq, yaxshi tarbiya esa farzandga umri davomida foyda beradi. Nafaqat umri davomida, balki vafotidan keyin oxiratda ham naf keltiradi. Zero, hadisi sharifda: “Banda go‘zal xulqi ila kechalari ibodatda qoim bo‘luvchi hamda kunduzi ro‘za tutuvchining darajasi – savobiga erishadi”, deyilgan.

Tan olish kerakki, ba’zi oilalarda ota-onada ertalabdan kechgacha ishlab, ko‘cha-ko‘yda yuradi, uyda bo‘lgan vaqtlarida ham o‘z ishlari bilan ovora bo‘lib farzandlariga vaqt ajrata olmaydi. Natijada farzand tarbiyani telefon, internet, televizor hamda ko‘cha-ko‘ydan olmoqda. Shunday tarzda ulg‘aygan bola yaxshi xulqli, odobli, ilm-ma’rifatli va kelajakda el-yurtiga xizmat qilib, ota-onasiga rahmat olib keladigan bo‘lib ulg‘ayishiga kim kafolat bera oladi?!

Farzandlarimiz, bo‘sh vaqtlarida nima bilan shug‘ullanmoqda, kuni bilan vaqtini nimalarga sarflayapti, uydagi televizor yoki kompyuterda nimalarni tomosha qilayapti, siz olib bergen telefondan yana qanday ishlarda foydalanmoqda, internetda qanday ma’lumotlarni o‘qib, qanday lavhalarni ko‘rmoqda, ko‘chada kimlar bilan do‘st bo‘lib, ular bilan vaqtini qanday o‘tkazmoqda yoki siz berayotgan pullarni qaerlarga sarflayapti?! Bunday ishlarda farzandni nazoratsiz qoldirish mumkin emas.

Bir odam o‘g‘li bilan birga hazrat Umar (r.a.)ning huzuriga keldi: “Bu o‘g‘lim, menga itoat etmaydi”, deya shikoyat etdi.

“Allohdan qo‘rmaysanmi, nega ota-onangga qarshi chiqasan? Ota-onaning farzandda juda ko‘p haqlari bor”, deya hazrati Umar o‘smirni ogoh etib, tanbeh berdilar.

“Ey mo‘minlar amiri, bolaning ham otada biron haqqi bormi?” deya so‘radi yosh yigit. “Ha, bor. Avval yaxshi xotinga uylanishi, bola tug‘sa, yaxshi ism qo‘yishi, unga Qur’oni karimni va farz ibodatlarini o‘rgatishi, uylanadigan yoshga yetgach uylantirishi – bolaning otasidagi haqlaridandir”, dedilar hazrati Umar.

“Allohgaga qasamki, otam musulmon ayollarni qoldirib, 400dirhamga sotib olgan bir cho‘ri bilan turmush qurdi. Menga yaxshi ism qo‘ymadi. Ismimni qurt – hashorat ma’nosida Juhla deb qo‘ydi. Menga Qur’oni karimdan va ibodatlardan hech narsa o‘rgatmadilar”, dedi. Buni eshitgan hazrati Umar o‘smirning otasiga qarab: O‘g‘lim menga itoat etmaydi, deysan. Hobuki, u senga qarshi chiqishdan avval sen uni haqlarini toptab, farzanding oldidagi vazifalariningni ado etmabsan-ku. Endi bor, avval o‘z vazifalariningni bajar, - deya haligi kishiga tanbeh bergen ekan.

Hadis sharifda “Farzanding yo jannating yoki do‘zaxingdir”, deb aytilgan. Agar ota-onada farzandini yaxshi xulqli, odobli va imon-e’tiqodli qilib tarbiyalasa, bunday farzand qiyomat kunida o‘zi bilan ota-onasini ham jannatga yetaklaydi. Shunday ekan, har bir ota-onada farzandlarining tarbiyasiga ko‘proq e’tibor berishi, ularga alohida vaqt ajratib, odob-axloqdan ta’lim berishi, ularni doimo nazorat qilib borishi, yomonlarga yaqin yo‘latmasligi



lozim ekan. Ana shunda ular ota-onasi va el-yurtiga xizmat qiladigan, ularga ikki dunyoda obro‘ olib keladigan, yuzlarini yorug‘ va boshlarini yuqori qiladigan farzandlar bo‘lib katta bo‘lishadi.

TADQIQOT NATIJALARI

Farzandning yaxshi, odobli, mehnatsevar, sog‘lom bo‘lib o‘sishi ko‘p jihatdan onasiga bog‘liq bo‘ladi. Olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, ona tarbiyasini olgan, uning g‘amxo‘rligi, shafqatini har qadamda his etib turgan bolalar butunlay o‘zlarini jamoat ishlariga baxshida qilib, sog‘lom, aqli, tarbiyali va ko‘ngilchang bo‘lib ulg‘ayishar ekan.

Farzand tarbiyasida onaning muhim vazifasi farzandlariga mehribonlik ko‘rsatib, ularni turli aziyat beradigan narsalardan muhofaza qilgan holda vaqtida oziqlantirib, yuvib-tarab, toza kiyintirib, shamollab qolishiga yo‘l quymay, uni parvarish qilishga dangasalik qilmay doimo hushyor va undan xabardor bo‘lishi lozim. Oila davrasida qiladigan onaning har bir harakati, og‘zidan chiqadigan har bir so‘zi, farzandining tarbiyasiga va uning shaklanishiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Har bir harakatidan o‘ziga nusxa olib, hali shakllanmagan so‘z zaxirasiga onaning so‘z boyligidan andoza oladi. Avvalambor, oilaning tinch-totuv, oila a’zolarining bir birlariga mehr-oqibatli bo‘lishlari farzand tarbiyasida muhim va munosib o‘rin egallaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki farzand tarbiyasi juda murakkab va mas’uliyatli vazifa. Bu vazifa yurt taraqqiyoti, mamlakat kelajagiga daxldor ekanini sira yoddan chiqarmaslik kerak. Yurtboshimizning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida, insonga xos orzu-intilishlarni ro‘yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy olam bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslangan. Tarbiyada mana shu ikki olam uyg‘unligi ta’mirlansa, katta muvaffaqiyatlarga erishilishi ayni haqiqat.

Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg‘ulariga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Insonlar farzandli bo‘lishdek baxtga erishish bilan birga ota-onalik vazifasini va mas’uliyatini ham to‘la anglab yetishlari lozim deb o‘ylayman. Chunki jamiyatimizning baxtli kelajagi uchun barchamiz mas’ulmiz. “Odobli bilimdon, aqli, mehnatsevar, iymon – e’tiqodli farzand nafaqat otaonaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir”. Bolalar- oila va jamiyatning ko‘zgusidir. Bolalarning yosh qalbiga hamma narsadan ko‘ra o‘rnak ko‘rsatish kuchli ta’sir etadi, ota-onalarning ko‘rsatadigan o‘rnagi (ibrati) esa ularning qalbida boshqa hamma kishilarning o‘rnagiga qaraganda chuqurroq va mustahkamrok iz qoldiradi. Oilaviy tarbiya doimo mavjudligi, ko‘rsatmaliligi va serjiloligi bilan ajralib turadi. Unda odobga doir tadbirlarni bolaga to‘g‘ri o‘rgatish, maslahat berish, kattalar tajribasigina emas, balki oilaning yashash tarzi, muhiti, ota-onalarning kasb hunari, oila a’zolarining ma’naviy- ruhiy munosabatlari katta rol o‘ynaydi.

Bir necha takliflar esa quyidagilardan iborat:



1. Farzandga ehtirom bildirish: Farzandning fikr va istaklariga hurmat bildirish, ularning fikrlarini eshitish va ularning fikrlariga ehtirom bildirish juda muhimdir.
2. Maslahat berish: Farzandlarga hayotda qarashlarning mohiyati haqida maslahat berish.
3. Fursatlardan foydalanish: Farzandlarga sport, san'at yoki boshqa sohada fursatlardan samarali foydalanishi uchun imkoniyat yaratish.
4. Ma'noli muloqot: Farzand bilan ma'noli muloqotda bo'ladi - ularning hayotingizda nima qilmoqchi ekanligini tushunishingiz juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimaxon Kamolova. Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rGANISHNING O'RGANISHNING ilmiy-nazariy asoslari. "Science and Education" Scientific Journal / December 2022 / Volume 3 Issue 12. 590-592 betlar.
2. Nishonova S. Sharq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi. Ped. fan. dok. diss... – T.: 1988. – 289 b.
3. Okon V. Osnov problemnogo obucheniya. – M.: Prosveshenie, 1998. – S
4. Ochil Safo. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari: (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, akademik I.A.Karimov asarlarimisolida). 2 – to'ldirilgan va qayta ishlangan nashri. O'qituvchi. – T.: 1997. – 256 b.
5. Rasulova, A., & Karimov, U. (2022). Socio-Pedagogical aspects of the formation of reading culture and skills. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(4), 114-118.
6. Karimov, U. U. (2021). Scientific and Theoretical Foundations of the Formation of the Social Environment in the Family. *Oriental Journal of Social Sciences*, 37-40.
7. Каримова, Г. Й. (2021). АХЛОҚ-МАЊНАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРИИ КУРАШНИНГ МАФКУРАВИЙ УСУЛИ СИФАТИДА. *Экономика и социум*, (6-1 (85)), 707-710.
8. Karimova, G. (2022). Forms of organization of educational activities in history in higher educational institutions. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(6), 127-132.
9. Gulnoza, K. (2023). SOCIAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF COOPERATION "FAMILY-NEIGHBORHOOD-EDUCATIONAL INSTITUTION". *Research Focus International Scientific Journal*, 2(6), 99-104.
10. Каримова, Г., Баҳординова, Ф., & Соибжонова, С. (2021). ОИЛА СОЦИОЛОГИЯСИДА ОИЛАДАГИ ИЖТИМОИЙ МУХИТНИНГ ЎРГАНИЛИШИ. *Интинаука*, (10-3), 44-45.



11. Dadaboeva, J. (2023). STATE PROTECTION OF FAMILY, FATHERHOOD, MOTHERHOOD, CHILDHOOD. *Science and innovation*, 2(C2), 29-33.
12. Dadaboeva, J. (2022). THE BASICS OF CIVIL LEGAL REGULATION OF SEPARATION FROM MARRIAGE. *Research Focus*, 1(4), 253-261.

